

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

### **O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATI**

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi dotsenti*

***Pulatova Moxira Baxtiyorovna***

*Toshkent shahridagi Puchon universiteti magistranti*

***Murodullayeva Madinabonu Eshali qizi***

**Annotatsiya:** Ushbu maqola O'zbekistondagi oliy ta'lif muassasalarining (OTM) faoliyatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda oliy ta'lif tizimidagi asosiy tendentsiyalar, jumladan infratuzilmani modernizatsiya qilish, ta'lif jarayonini raqamlashtirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish ko'rib chiqilgan. Shuningdek, malakali kadrlar yetishmasligi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi va akademik mobillikni oshirish zarurati kabi muammolar qayd etilgan. Maqolada, shuningdek, dunyo standartlariga mos keluvchi yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash maqsadida oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar ham ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lif, O'zbekiston, islohotlar, xalqarolashtirish, raqamlashtirish, akademik mobillik.

**Аннотация:** Статья посвящена анализу деятельности высших образовательных учреждений (ВОУ) в Узбекистане. Рассматриваются основные тенденции в системе высшего образования, включая модернизацию инфраструктуры, цифровизацию учебного процесса и интернационализацию. Отмечены ключевые проблемы, такие как нехватка квалифицированных кадров, ограниченные финансовые ресурсы и необходимость повышения академической мобильности. В работе также представлены предложения по дальнейшему развитию системы высшего образования для подготовки высококвалифицированных специалистов в соответствии с мировыми стандартами.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

**Ключевые слова:** высшее образование, Узбекистан, реформы, интернационализация, цифровизация, академическая мобильность.

O‘zbekistonning oliy ta’lim tizimi so‘nggi yillarda keng miqyosdagi islohotlar va global integratsiya jarayonlariga qadam qo‘ymoqda, shu bilan birga har bir sohada keng ko‘lamli islohatlar amalga oshirilmoqda. O’z navbatida, mazkur islohatlarning salmoqli qismini ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlar tashkil etmoqda. Bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun xorijiy ta’lim tizimlarining tajribalari, uslublari va metodologiyalarini joriy etish muhim ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda ta’lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, oliy ta’lim tizimida islohotlar va amaliy chora-tadbirlar keng ko‘lamli amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovich O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda takidlaganlaridek: Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu - ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq<sup>1</sup>. Yurtimizda bugungi kunda eng dolzarb muammo va yechimlarni qamrab olgan 30-yilgacha mo‘ljallangan konseptsianing qabul qilinishi va amalga oshirilishi yurtimizda ta’lim sohasida ulkan o‘zgarishlar amalga oshishiga olib keladi. Ta’lim sifati O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minalash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston

<sup>1</sup> Sh.M. Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи nutqidan (30.09.2024 yil.)

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldaggi PQ-4391-son "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish choratadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan. Kontseptsiya O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari, vazifalari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda sohaga oid dasturlar va kompleks choratadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasida: Oliy ta'lim tizimining joriy holati va mavjud muammolar, Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari, Oliy talim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga raqamlı texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, oliy ta'lim muassasalarida ilmiy - tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish ilm-fanning innovattsion infratuzilmasini shakllantirish, ma'naviy - ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash, moddiy - texnik ta'minotini mustahkamlash, oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, oliy ta'lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta'minlash, konseptsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar xususida keng qamrovli masalalar qamrab olingan.


Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'tgan 2023 yilda 7 ta yangi oliy ta'lim muassasasi faoliyati yo'lga qo'yilib, ularning soni jami 213 taga yetkazildi. Shundan 116 tasi davlat, 67 tasi nodavlat, 30 tasi esa xorijiy oliy ta'lim muassasasidir. Hozirda 213 ta oliygohda 1 ming 300 ming nafardan ziyod talaba tahsil olib, bu ko'rsatkich yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 42 foizga oshganligini ko'rsatadi (1-diagramma) .

**1-diagramma.**

## **Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi**

### **Oliy ta'lif muassasasi soni (2023 yil, sonda)<sup>2</sup>**

2023 yilda jami: 213 ta oliy ta'lif muassasasi



Bundan ko'rinish turibdiki bugungi kunda talim tizimidagi ijobjiy o'zgarishlar sezilarli darajada o'sgan. Davlat oliy talim muassasalari tegishliligi bo'yicha vazirlik va idoralar tasarrufiga biriktirilgan: Xorijiy oliy ta'lif tashkilotlari soni so'nggi 3 yilda ikki barobar oshgan. 2023 yilda respublika bo'yicha 30 ta xorijiy oliy ta'lif tashkiloti faoliyat yurmoqda. Davlat oliy ta'lif muassasalari tegishliligi bo'yicha vazirlik va idoralar tasarrufiga biriktirilishi- oliy ta'lifda kadrlar sifatini oshirish, har bir yo'naliш bo'yicha yetuk mutaxassislarning tayyorlanishi nazarda tutilgan. Bu oliy dargohlarning ko'lami yildan-yilga o'sib borayotgani va mamlakatimizning rivojiga hissa qo'shadigan turli yo'naliшlarda kadrlar tayyorlayotgani bugun hech kimga sir emas.

Bugungi kunda oliy ta'lif sifatini ta'minlash va modernizasiyalashtirishda avvalom bor, zamonaviy o'quv-metodik ta'minotni shakllantirish masalasi paydo bo'ldi. Shu sababli davlatimiz tomonidan oliy ta'lif oldiga qo'yayotgan masalalarni ijobjiy hal etish uchun zamoaviy o'quv-metodik ta'minotni yaratish dolzarb masala bo'lib turibdi. Ta'lif sifati va ta'lif samaradorligi jamiyatda hayot sifatini ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Davlat va jamiyat umumiylari va kasbiy ta'lifga qanchalik ko'p mablag' sarflasa va natijasi eng yuqori xalqaro standartlarga javob bersa, hayot sifati shunchalik yuqori bo'ladi.

#### **Islohotlar va rivojlanish istiqbollari**

<sup>2</sup> [https://aza.uz/oz/posts/ozbekistonda-nechta-oliy-talim-muassasasi-faoliyat-yuritadi\\_567669](https://aza.uz/oz/posts/ozbekistonda-nechta-oliy-talim-muassasasi-faoliyat-yuritadi_567669) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

Aniqlangan muammolarni hal etish va O‘zbekistonda oliy ta’lim sifatini oshirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlar taklif etildi:

Ta'limga investitsiyalar. Davlat tomonidan moliyalashtirishni ko‘paytirish, xususiy investitsiyalarni jalb qilish va universitetlarni moliyalashtirishning moslashuvchan mexanizmlarini joriy etish.

Ilmiy faoliyatni rivojlantirish. Xalqaro ilmiy jurnallarda nashrlar sonini ko‘paytirish, innovatsion klasterlarni yaratish va tadqiqot faoliyatini rag‘batlantirish.

Akademik harakatchanlikni qo'llab-quvvatlash. Xalqaro stipendiya dasturlarini ishlab chiqish, ta’lim forumlari va konferensiyalarida ishtirok etish.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalari faoliyati faol o‘zgarishlar bosqichida. Islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish davlat, ta’lim tashkilotlari va jamiyatning muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlarini talab qiladi. Oliy ta’limning barqaror rivojlanishi mamlakatning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘sha oladigan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning asosiy omili bo‘ladi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Sh.M. Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи nutqidan. 30.09.2024 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi. 2-bob
3. <https://www.unicef.org>